

SUD HOKIMIYATI MUSTAQILLIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Muxamadiyev Xojiakbar Aslitdinovich

Burxonov Asror Axror o'g'li

Xasanova Maftuna Axad qizi

Kattabekova Sojida Qodirqul qizi

ORCID:0000-0003-2571-72

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11246375>

Annatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining boshqa hokimiyat tarmog'laridan farqli ravishda faqat qonunga bo'ysunishi, sudlarning mustaqilligi, sudyalarning huquqlari daxlsizligi, sudyaning oila a'zolarining xavfsizligi masalalari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sud hokimiyati, daxlsizlik, mustaqillik, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, vakolat muddati.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF JUDICIAL INDEPENDENCE

Abstract. In this article, the judicial power in the Republic of Uzbekistan, unlike other branches of power, is subject only to the law, the independence of the courts, the inviolability of the rights of judges, and the safety of the judge's family members.

Keywords: Judiciary, immunity, independence, human rights, rule of law, term of office.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ НЕЗАВИСИМОСТИ СУДЕБНОЙ ВЛАСТИ

Аннотация. В данной статье судебная власть в Республике Узбекистан, в отличие от других ветвей власти, подчиняется только закону, независимости судов, неприкосновенности прав судей и безопасности членов семьи судьи.

Ключевые слова: Судебная власть, иммунитет, независимость, права человека, верховенство закона, срок полномочий.

Sud hokimiyatiga qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlari qatori hokimiyatning teng tarmog'i sifatida qaraladi. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatining o'rni, vakolati, uning ta'siri davlat boshqaruv shakliga ko'ra (parlamentar boshqaruv shaklida yuqoriroq o'rinda yoki prezidentlik respublikasida aksincha) o'zgarishi mumkin. Sud hokimiyatining o'rni, vakolati har qanday davlat boshqaruv shaklida ham

o‘zgarishsiz qoladi¹.

Konstitutsiyamizning 130-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi.” deb belgilab qo‘yilgan.

Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatidan o‘zining alohida organlar tizimiga ega ekanligi, bajaradigan vazifasi va uni amalga oshirish shaklining aniq belgilab qo‘yilganligi bilan farqlanadi. Masalan, sud hokimiyati sud tizimini tashkil etuvchi sudlardan iboratligi, odil sudlov uning faoliyatining asosiy shakli ekanligi va faqat sud tomonidan amalga oshirilishi Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklaridan faqatgina qonunda nazarda tutilgan hollarda sud mahrum etishi mumkin. Bu esa sudning alohida hokimiyat tarmog‘i sifatida o‘z o‘rniga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Rivojlangan demokratik davlatlar qatori O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipi asosida tashkil etilgan. Hokimiyatlarning bo‘linish prinsipi ko‘plab xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida ham ushbu prinsip belgilab berilgan bo‘lib, unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi. Hokimiyatlarning har biri mustaqil maqomga ega bo‘lib, faqat o‘ziga xos vazifalarni bajaradi, o‘z vazifasini boshqa hokimiyat tarmog‘i bajarishining oldini oladi va ayni vaqtda boshqa hokimiyat tarmog‘ining vazifalarini bevosita yoxud birgalikda bajarishdan o‘zini tiyadi.

Sud hokimiyati faoliyat yo‘nalishiga qarab, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi barcha idoralar o‘z faoliyatini faqat qonun tomonidan berilgan vakolat doirasidagina yuritadilar. Har bir hokimiyat o‘z faoliyatini o‘ziga tegishli bo‘lgan vakolatlardan foydalangan holda amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida sud O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda e‘lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari

¹ Конституционное право зарубежных стран: Учебник / Под.общ.ред. М.В.Баглая, Ю.И.Лейбо и Л.М.Энтина. – М., 2008. – С. 384.

hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining sud yo'li bilan himoya qilinishini ta'minlaydi. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Umuman, sud hokimiyatining faoliyati mamlakatimizda qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgan.

Odil sudlov tamoyillarining xususiyati shundan iboratki, unda belgilangan qoidalar nafaqat fuqarolar, mansabdor shaxslar hamda davlat organlari uchun, balki qonun chiqaruvchi idoralar uchun ham taalluqlidir. Qonun chiqaruvchi va qonunga o'zgartirish kirituvchi organlar o'z faoliyatlari davomida demokratik talablar hamda an'analar qatori ushbu tamoyillarga ham amal qiladilar.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga sudlar va sudyalarning mustaqilligini, sudyalarning va ularning oilalarining daxlsizligini ta'minlash, ularning vakolatlarini kengaytirish, moddiy va moliyaviy ta'minotini yaxshilashga oid bir qator yangi normalar kiritildi.

Zero, huquqiy demokratik davlatda sud va sudyalarning amalda mustaqil bo'lsagina qonuniylik ta'minlanadi, inson huquq va erkinliklari kafolatlanadi.

Konstitutsiyamizga kiritilgan 136-moddaga ko'ra, "Sudyaning muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga, uning vakolatlarini bekor qilishga yoki to'xtatib turishga, boshqa lavozimga o'tkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga ko'ra yo'l qo'yiladi. Sudning qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi sudyaning lavozimidan ozod etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas".

Konstitutsiyaga kiritilgan yangi normalarning mazmun-mohiyati va ahamiyati shundan iboratki:

birinchidan, sudyaning muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga, uning vakolatlarini bekor qilishga yoki to'xtatib turishga faqatgina qonunda belgilangan tartib va asoslarga ko'ra yo'l qo'yiladi. Bu degani, sudya o'zi olib borayotgan biron bir ishni ko'rish davrida ushbu ishdan chetlashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, sudya yoki sudyalarning tarkibi bir jinoyat ishini boshidan oxirigacha ko'rib chiqib, hukm chiqarguniga qadar ushbu jinoyat ishini ko'rib chiqish vakolati ulardan olib qo'yilmaydi.

Ikkinchidan, sudyaning boshqa lavozimga o'tkazishga faqatgina qonunda belgilangan tartib va asoslarga ko'ra yo'l qo'yiladi.

Uchinchidan, sudyani lavozimidan ozod etish uchun asos sifatida sudning qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi sabab bo'la olmaydi.

Darhaqiqat mazkur normani kiritishga zaruriyat ham shundan iboratki, avvalo sudyalarning mustaqilligi va ularning daxlsizligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanadi, sudyaning vakolatlari qonunda belgilangan tartibdan hamda asoslardan boshqacha tarzda tugatilishi yoki to'xtatib turilishi mumkin emasligi kafolatlanadi.

Shuningdek, bunday qoidalar **Ispaniya, Italiya, Xorvatiya, Portugaliya, Gretsiya** konstitutsiyalarida ham o'z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur qoidaning Konstitutsiyada belgilanishi eng avvalo, sudyaning mustaqilligini, sudlarda ish ko'rishda xolisligini ta'minlashga, xususan muayyan ishni boshidan oxirigacha turli aralashuv va tazyiqlarsiz bir sudya tomonidan ko'rib chiqib, qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. 94-101-b.
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022. – 344-360-betlar.
3. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. -Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi. Harbiy-texnik instituti, 2019. 607-663-betlar.
4. Маматов Х.Т. Конституциявий ҳуқуқ: дарслик. – Тошкент: Yuristmedia markazi, 2018. 392-422 бетлар.
5. Конституционное право. Учебник // Авторский коллектив. – Ташкент: Ташкентский государственный юридический университет, 2018 г. С. 486-506.
6. Ides A., May C. N., Grossi S. Examples & Explanations for Constitutional Law: Individual Rights. – Wolters Kluwer Law & Business, 2018. 599 pages.